

Tashkilot nomi:	Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti
Tarkibiy bo'linma nomi:	Pedagoglar markazi
Tanlov bosqichi:	Suhbat
Savol yo'nalishi:	Lavozim kasb faoliyatiga bog'liq qonunchilik sohasi (100 ta savol)

1. Mansabdor shaxslar uchun ma'muriy javobgarlikning xususiyatlarini tushuntirib bering.
2. Yarashilganligi munosabati bilan ma'muriy javobgarlikdan ozod qilish shartlari haqida gapirib bering.
3. Ma'muriy jazoning maqsadi va turlari haqida aytib bering.
4. Ma'muriy qamoqqa olish jazosi muddatlari va tayinlash shartlarini yoritib bering.
5. Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni yuritishni istisno etuvchi holatlarni yoritib bering.
6. Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonunchilikka asosan huquqbuzarni ushlab keltirish asoslari va tartibini yoritib bering.
7. O'zbekiston Respublikasining "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi Qonuniga asosan, ijro ishi yuritishni qo'zg'atish tartibi va muddatlari qanday?
8. Jinoyatda ishtirok etganlik uchun javobgarlik doirasini yoritib bering.
9. Jinoyat sodir etganlik uchun jazolar tizimi va undagi o'zgartish va qo'shimchalar haqida aytib bering.
10. Jinoyat sodir etganlik uchun qo'llaniladigan "Majburiy jamoat ishlari" jazosining tushunchasi va uni ijro etish tartibini yoritib bering.
11. Javobgarlikka tortish muddatining o'tib ketganligi munosabati bilan jinoyat uchun javobgarlikdan ozod qilish tartibi haqida gapirib bering.
12. Jinoyat-protsessual qonunchiligiga asosan sudda ishlarni yuritishda tortishuv prinsipi qanday ta'minlanadi?
13. Jinoyat-protsessual qonunchiligiga asosan himoyachining qay tartibda ishda ishtirok etishi haqida gapirib bering.
14. Jinoyat-protsessual qonunchilikka asosan himoyachi ishtirok etishi shart bo'lgan holatlarni sanab o'ting.
15. Jinoyat-protsessual qonunchiligiga asosan himoyachidan voz kechish tartibi haqida aytib bering.
16. Jinoyat-protsessual qonunchiligiga asosan qaysi hollarda himoyachidan voz kechishga yo'l qo'yilmaydi?
17. Jinoyat-protsessual qonunchiligiga asosan reabilitatsiya uchun asoslarga nimalar kiradi?
18. Aybliklik to'g'risidagi masalani hal qilmay turib jinoyat ishini tugatish asoslariga nimalar kiradi?
19. Advokatura faoliyatining tashkiliy shakllarini tushuntirib bering.
20. Kimlar advokat bo'lishi mumkinligi haqida ma'lumot bering.
21. Advokat qanday huquqlarga ega?
22. Davlat boshqaruvi organlarining yuridik xizmatlari qanday huquqlarga ega?

23. Yuridik xizmat zimmasida bo'lgan majburiyatlarni sanab ko'rsating?
24. O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonuni qo'llanilmayidgan sohalarni ayting.
25. Notarius bo'lish uchun talabgorlarga qanday shartlar belgilangan?
26. Kimlar notarius bo'lishi mumkin emasligini izohlab bering.
27. Notarius faoliyatidagi cheklovlarni aytib bering.
28. Xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius maqomini, tashkil etish tartibi va tugatilishining oqibatlarini yoritib.
29. Notarius maqomiga ega bo'lish, lavozimga tayinlash va lavozimdan ozod etish tartibini yoritib.
30. Notarius litsenziyasining amal qilishini tugatish qaysi hollarda amalga oshiriladi?
31. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huquqiy monitoringni o'tkazishda vakolatlari nimadan iborat?
32. O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi qonuniga asosan jismoniy shaxslarni va yuridik shaxslarning vakillarini qabul qilish tartibini tushuntirib bering.
33. Murojaatlar munosabati bilan ayon bo'lib qolgan ma'lumotlarning oshkor etilmasligi kafolatlari deganda nima tushuniladi?
34. O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi qonuniga asosan murojaatlar bo'yicha ish yuritish tartibi qanaqa?
35. O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi qonuniga asosan murojaatlarga javoblar berish tartibini yoritib bering.
36. O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi qonuniga asosan murojaatlarni ko'rmay qoldirish asoslari va tartibini gapirib bering.
37. O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi qonuniga asosan murojaatlarni umumlashtirish va tahlil qilish tartibini gapirib bering.
38. Normativ-huquqiy hujjat loyihasining ekspertizasi qanday amalga oshiriladi?
39. Normativ-huquqiy hujjatlarni e'lon qilishga doir qanday talablar mavjud?
40. Ma'muriy ish yuritishda ishtirok etish imkoniyatini istisno qiluvchi holatlarni sanab bering.
41. O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonunga binoan manfaatdor shaxslarning huquq va majburiyatlarini yoritib bering.
42. Bola huquqlarini himoya qilish bo'yicha davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari nimalardan iborat?
43. Nima sababdan o'z ozodligi uchun kurashayotgan xalqlar va millatlar xalqaro ommaviy huquq sub'ektlari qatoriga kiritilgan?
44. Normativ-huquqiy hujjatlar va ularning turlarini yuridik kuchi jihatidan muhokama qiling.
45. Xalqaro gumanitar huquqiga ta'rif bering.

46. BMT Xalqaro sudi haqida gapirib bering.
47. O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuniga ko‘ra, qaysi davlat organlari korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni bevosita amalga oshiradi?
48. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida fuqarolik masalalari bo‘yicha qanday qoidalar belgilangan?
49. Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurash kuni haqida nimalarni bilasiz?
50. O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonuniga ko‘ra, manfaatlar to‘qnashuvi deganda nima tushuniladi?
51. Nimalar ma‘muriy tartib-taomillar bilan bog‘liq bo‘lgan korrupsiyaviy omillar deb hisoblanadi?
52. O‘zbekiston Respublikasi “Ma‘muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonunning tatbiq etiladigan va tatbiq etilmaydigan sohalarini keltiring.
53. O‘zbekiston Respublikasi “Ma‘muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonuniga asosan, ma‘muriy organ tomonidan ma‘muriy ish yuritishni to‘xtatib turish holatlari va tartibini yoriting.
54. O‘zbekiston Respublikasi “Ma‘muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonuniga asosan, ma‘muriy organ tomonidan qaysi hollarda ma‘muriy ish yuritish tugatiladi?
55. O‘zbekiston Respublikasi “Ma‘muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonuniga asosan, ma‘muriy shikoyat qilish tartibi va muddatlari qanday?
56. O‘zbekiston Respublikasi “Ma‘muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonuniga asosan, ma‘muriy shikoyat kimlar tomonidan ko‘rib chiqiladi va qanday qarorlar qabul qilinadi?
57. “Elektron hukumat” tizimini tushuntirib bering.
58. Davlat xususiy sheriklik deganda nimani tushunasiz?
59. Iqtisodiy sud ishlarini yuritish vazifalarini va Iqtisodiy sudga murojaat qilish shakllarini tushuntiring?
60. Sud hujjatlari turlarini ayting?
61. Bankrotlik to‘g‘risidagi ishlarga nimalar kiradi?
62. Korporativ nizolar bo‘yicha ishlarga qaysi ishlar kiradi?
63. Qaysi ishlar investitsiyaviy nizolar hisoblanadi?
64. Iqtisodiy sudda ekspertiza tayinlash va uni o‘tkazish tartibini tushuntiring?
65. Soddalashtirilgan ish yuritish tartibidagi ishni ko‘rib chiqish xususiyatlariga to‘xtalib o‘ting.
66. Yuridik ahamiyatga ega bo‘lgan faktlarni aniqlash to‘g‘risidagi ishlarga to‘xtalib o‘ting.
67. Hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish asoslariga to‘xtalib o‘ting.
68. Iqtisodiy sud qaysi asoslarga ko‘ra ish yuritishni to‘xtatib turishi shart (majbur)?
69. Iqtisodiy sud qaysi asoslarga ko‘ra ish yuritishni to‘xtatib turishga haqli (ixtiyorida)?
70. Fuqarolik ishlari bo‘yicha sudga qaysi ishlar taalluqli?
71. Fuqarolik protsessida isbotlashdan ozod qilish asoslarini tushuntiring?

72. Fuqarolik sudi ma'muriy javobgarlikka tortishi mumkinmi?
73. Ishda ishtirok etuvchi shaxslarning sud majlisiga kelmaganligi oqibatlarini tushuntiring?
74. Mediatsiyani qo'llash va mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirishni tushuntiring.
75. Xodimlar vakillik organlarining huquqlarini ayting?
76. Ish beruvchining xodimlarning vakillik organlari oldidagi majburiyatlari qanday?
77. Mehnat sohasidagi ijtimoiy sheriklik tushunchasi va asosiy prinsiplari qanday?
78. Xodimlarning vakillik organlari tarkibiga saylangan shaxslarga beriladigan mehnat kafolatlari haqida nimalarni bilasiz?
79. Jamoa shartnomasining mazmuni va tuzilishi haqida ma'lumot bering?
80. Jamoa shartnomasi, kelishuvining loyihasini tayyorlashda muzokaralar olib borish tartibi qanday?
81. Jamoa shartnomasining mazmuni va tuzilishiga doir talablarni sanang?
82. Ish beruvchi qanday hollarda xodim rozilgisiz mehnat shartlarini o'zgartirish huquqiga ega va uni tartibi qanday?
83. Xodimni vaqtincha boshqa ishga o'tkazish tartiblarini aytib bering?
84. Mehnat shartnomasini o'zgartirishni rasmiylashtirish tartibini ayting?
85. Oldi-sotdi shartnomasi deganda nimani tushunasiz?
86. Vaziyat jiddiy o'zgarishi munosabati bilan shartnomani o'zgartirish va bekor qilish tartibini tushuntiring?
87. Kimoshdi savdosida shartnoma tuzish tartibini tushuntiring?
88. Ommaviy shartnoma haqida tushuncha bering?
89. Majburiyatlarni buzganlik uchun javobgarlik asoslari ayting?
90. Qarzdorning zararni to'lash majburiyati haqida gapiring?
91. Kreditor huquqlarining boshqa shaxsga o'tish asoslari va tartibi qanday?
92. Ulushli mulkdagi mol-mulkni taqsimlash va undan ulush ajratish tartibi qanday?
93. Xo'jalik yuritish va operativ boshqarish huquqlarining vujudga kelishi va bekor bo'lishini ayting?
94. Da'vo muddati joriy qilinmaydigan talablar?
95. Notarial tasdiqlangan ishonchnomalarga tenglashtirilgan ishonchnomalar haqida nimalarni bilasiz?
96. Aldash, zo'rlik, qo'rqitish, bir taraf vakilining ikkinchi taraf bilan yomon niyatda kelishishi yoki og'ir holatlar yuz berishi ta'sirida tuzilgan bitimning haqiqiy emas deb topish tartibi qanday?
97. Sha'n, qadr-qimmat va ishchanlik obro'sini himoya qilish tartibi qanday?
98. Yuridik shaxsni tugatish tartibi qanday?
99. Yuridik shaxsni qayta tashkil etish tartibini tushuntiring?
100. Ko'chmas mol-mulkni davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibini tushuntiring?